

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025-yil yanvar-fevral oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2025-yilning yanvar-fevral oyida respublika korxonalarini tomonidan **122 191,4** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,0** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 81,3 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 9,0 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 9,1 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,6 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 0,5 % ga oshganligi hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 5,0 % ga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 1,0 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oziq ovqat ishlab chiqarish (2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 17,2 % ga oshgan), to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (5,0 %) hamda boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish (31,4 % ga), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (73,6 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 83,4 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori mahsulotlari (2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 99,0 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

2. Inflyatsiya darajasi

2025-yilning yanvar-fevralida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **101,3** % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 101,4 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 100,6 % ni, xizmatlar bo'yicha 101,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari hisobiga 2024-yilning dekabriga nisbatan yig'ma ko'rsatkich 0,63 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) yuqoriladi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining oshishi yig'ma INIga 0,20 f.d., xizmatlar – 0,44 f.d. ta'sir etdi.

Bo'limlar kesimidagi INI diapazoni 100,0 % dan ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar") 101,6 % gacha ("Transport") chegarasida bo'ldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o'zgarishlari 2025-yil yanvar-fevralidagi yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga salmoqli (+0,61 f.d.) ta'sir ko'rsatib, ularning hissasiga umumiy ta'sir darajasining 48 %i to'g'ri keldi.

“Transport”, “Ta’lim sohasidagi xizmatlar”, “Sog’liqni saqlash” va “Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar” bo’limlaridagi narx o’zgarishlari hisobiga oylik yig’ma ko’rsatkich qo’shimcha 0,48 f.d. (umumiy ta’sir darajasining 37,8 %) yuqoriladi.

Boshqa bo’limlardagi narx o’zgarishlarining ta’siri past darajada bo’ldi.

3. Qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-fevral oyida **26 339,5** mlrd. so’mlik qurilish ishlari bajarilib, o’sish sur’ati **111,8** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 5458,5 mlrd. so’mi yoki 20,7 % yirik korxonalar va tashkilotlar, 13423,7 mlrd. so’mi yoki 51,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar, 7457,3 mlrd. so’mi yoki 28,3 % norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025-yilning yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi **57 100,1** mlrd. so’mni tashkil etib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan **10,2** % ga o’sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 9,7 % ga o’sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,0 % ulushiga to’g’ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 9,5 % ga o’sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 72,2 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 16,0 % ulush bilan 5 885,2 mlrd. so’mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **10 845,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 973,3 mln. AQSh dollariga yoki **9,9** % ga ko’paydi. Eksport hajmi **4 643,0** mln. AQSh dollariga yetdi, o’tgan yilning shu davriga nisbatan **27,7** % ga ko’paydi. Import **6 202,6** mln. AQSh dollariga yetdi va o’tgan yilning shu davriga nisbatan **0,6** % ga kamaydi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o’sish kuzatildi, jumladan: Kimyoviy moddalar va shunga o’xshash mahsulotlar 10,9 % (275,3 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg’i, moylash materiallari va shunga o’xshash materiallar 30,6 % (143,6 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 24,3 % (294,2 mln. AQSh doll.)ga, ichimliklar va tamaki 65,5 % (24,6 mln. AQSh doll.)ga.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o’sish kuzatildi, jumladan: Hayvon va o’simlik moylari, yog’lar va mumlar – 56,7 % (76,5 mln. AQSh doll.)ga, kimyoviy moddalar va shunga o’xshash mahsulotlar 6,1 % (783,4 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 20,8 % (645,9 mln. AQSh doll.)ga, nooziq-ovqat xom ashyosi, yoqilg’idan tashqari – 33,4 % (139,9 mln. AQSh doll.)ga to’g’ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2025-yilning yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **136 046,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,2** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 14,6 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 2,6 punkt), transport xizmatlari 12,9 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,5 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 11,0 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,1 punkt), savdo xizmatlari 9,4 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,6 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 23,1 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,6 punkt), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni 10,7 % ga (o'sishdagi ta'siri 0,3 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi transport xizmatlari (27 200,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,9 %ga yetdi), yashash va ovqatlanish (25 783,5 mlrd. so'm, 111,0 %), moliyaviy xizmatlar (23 347,2 mlrd. so'm, 114,6 %), savdo xizmatlari (21 890,9 mlrd. so'm, 9,4 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2025-yil 1 mart holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **439,0** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 370,4 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (99 117 ta), Toshkent (41 789 ta), Samarqand (38 784 ta), Farg'ona (35 699 ta), Qashqadaryo (28 394 ta), Buxoro (26 961 ta) va Andijon (25 999 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 142 113 ta, sanoat sohasida – 56 767 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 32 013 ta, qurilish sohasida – 28 107 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 27 248 tani tashkil etadi.

2025-yil yanvar-fevral oyida respublikada 14,5 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 12,7 mingtani tashkil etdi.

2025-yil 1 mart holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 15 503 tani tashkil etdi. Ulardan 4 011 tasi qo'shma korxonalarni va 11 492 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.